



**Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities
Hosted online from Plano, Texas, USA.**

Date: 1st April, 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHNING MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

Kamiljanov Berdax

Nukus innovatsion instituti

Iqtisodiyot va biznes kafedrasi assistent o'qituvchisi

Mamutova Kamila

Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti

ANNOTATSIYA

Ilmiy tezisda qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari jadval misolida tahlil qilingan. Tahlil natijalari asosida xulosalar qilinib, amaliy takliflar berilgan.

KALIT SO'ZLAR: Qishloq xo'jaligi, chorvachilik, dexqonchilik, ekin maydonlari, qishloq xo'jaligida ilg'or texnologiyalar, ekstensiv usul

Qishloq xo'jaligini bozor iqtisodiyoti qonunlari talablari darajasida rivojlantirish uchun tarmoqda erkin faoliyat ko'rsatish imkoniyatiga ega boigan turli xildagi mulkchilik shakllarining, ularga asoslangan tadbirkorlik turlari hamda ular oitasidagi erkin bozor munosabatlarining nazariy, uslubiy asoslarini teranlashtirish, takomillashtirish, investitsiyalarni ko'proq jalg'ib etib, fan-texnika yutuqlarini, yangi texnikalarni, ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish, cheklangan yer va suv resurslaridan, kapital hamda mehnat resurslaridan qisqa va uzoq muddatlarda to ilq va samarali foydalanish yollarini aniq belgilash, barcha xarajatlami tejash, mehnat unumдорligini yuksaltirish, ishchi-xizmatchilami rag'batlantirish tizimini takomillashtirish negizida foyda summasini ko'paytirish yollarini asoslangan holda belgilab olish maqsadga muvofiqdir. Bu masalalarning ilmiy hamda amaliy asoslarini yaratishda, rivojlantirishda, ularni ishlab chiqarishga joriy etishda qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish zarur.

Davlatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev "Kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil- bu qishloq



Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st April, 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirishdir"¹ deb ta'kidlagan edi ma'ruzalarining birida .

Qishloq xo'jaligi tarmog'i, uning iqtisodiyotda tutgan o'rni borasida bir qator olimlarimiz o'zining ilmiy mehnatlarida, adabiyotlarida keltirilgan.

Qishloq xo'jaligi tarmog'ida turli hildagi mahsulotlar yetilishtiriladi, ishlar, xizmatlar bajariladi va ular ehtiyojlarini qondirish maqsadida taqsimlanadi, sotiladi.²

Qishloq xo'jaligi tarmog'i moddiy ne'matlar ishlab chiqaradigan soha tarmoqlari orasida muhim o'rin egallaydi. Qishloq xo'jalik mahsuloti - bu qishloq xo'jalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati natijasidir. Qishloq xo'jalik mahsulotlari dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarida yetishtirilgan mahsulotlar (g'alla, paxta, kartoshka, savzavot, meva, sut, jun, tuxum, mol va parrandalarni yetishtirish va boshqalar) yig'indisidan iborat.³

Mamlakatimizda keyingi yillarda qishloq xo'jaligi rivojlantirishda bir qancha me'yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora tadbirlar tog'risida" 2020-yil 18-maydagi PF-5995 – son farmoni, "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030- yillarga mo'ljallangan strategiyada belgilangan vazifalarni 2021-yilda amalga oshirish tog'risida" 2021-yil 26-fevral PQ-5009 sonli qarori, Vazirlar mahkamasining "Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutini tashkil etish chora tadbirlari tog'risida" 2021-yil 4-may 275-tonli qarori qabul qilingan.

Ma'lumki respublikamizda qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohada 3,6 million aholi band. Mamlakat yalpi ichki mahsulottagi ulushi 32 foizni tashkil etmoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan yer maydoni Respublika hududining 45 foizini tashkil etadi, qariyb 50 foiz aholi aynan qishloq joylarida istiqomat qiladi⁴.

Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda yetakchi bo'lib kelmoqda. Biz quyidagi jadvalda qishloq xo'jaligiga ajratilgan yer

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/4057>

² Nurmatov N.J va boshqalar. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma.T.:, Tafakkur nashriyoti, 2011, 12-b

³ S.Ochilov, Sh.T. Ergasheva. Qishloq va suv xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma.T.:, Yangi yul polygraph service , 2008, 137-b

⁴ <https://regulation.gov.uz/uz/document/7865>

maydonlari, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini va uning chorvachilik va dehqonchilikdagi ishlab chiqarish hajmlarini ko`rib chiqamiz va diagrammalarda keltiramiz.

1- jadval Qoraqalpog`iston Respublikasida qishloq xo`jaligining asosiy ko`rsatkichlari (milliard so`m)


	2018 yil	2019 yil	2020 yil
Qishloq xo`jaligi ekinlari ekin maydoni, gektar	232 141	263 724	263 763
Qishloq xo`jaligi mahsuloti, mlrd. so`m	6 562,9	8 208,1	9 751,6
Shundan			
Dehqonchilik	2 992,1	3 947,9	4 509,7
Chorvachilik	3 570,8	4 260,2	5 241,9
Qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish-ning o`sish sur`ati, o`tgan yilga nisbatan foizda	100,6	107,0	102,3
Shundan			
Dehqonchilik	96,0	112,4	100,6
Chorvachilik	104,7	102,5	103,9

QISHLOQ XO`JALIGI EKLNLARI EKIN MAYDONI, GEKTAR



1-diagramma. *Qishloq xo`jaligi ekinlari ekin maydoni*





Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmi(mIrd so'm)



2-diagramma. Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish hajmi

Yuqoridagi 1- jadvalda qishloq xo'jaligi uchun ekin maydonini ajratish 2019 yilda 2018 yilga nisbatan 31 583 hektar yerga oshgan. 2020 yilda qishloq xo'jaligi ekin maydoni 263763 hektar yer maydonini tashkil etgan.Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish 6 562,9milliard so'mni tashkil etgan. 2019 yilda bu ko'rsatkich 8 208,1 milliard so'm , 2018 yilga nisbatan 1645 milliard so'mga ko'paygan. 2020 yilda esa bu ko'rsatkich 9751,6 milliard so'm bo'lib, 2019 yilga nisbatan 1544 milliard so'mga ya'ni 102,3 foizga ko'paygan. 2019 yilda ekin maydoni 31 583 hektar yerga oshib, mahsulot ishlab chiqarish 1645 milliard so'mga ko'paygan bo'lsa, 2020 yilda ekin maydoni oshirilmastan mahsulot ishlab chiqarish 9651,6 milliard so'mga ko'paygan. Bu esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ilg'or texnologiyalardan mahsulot yetishtirshning ekstensiv usullaridan foydalanayotganligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Nurmatov N.J va boshqalar. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma.T.: Tafakkur nashriyoti, 2011, 12-
2. S.Ochilov, Sh.T. Ergasheva. Qishloq va suv xo'jaligi statistikasi. O'quv qo'llanma.T.: Yangi yul polygraph service , 2008, 137-b

Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Plano, Texas, USA.

Date: 1st April, 2024

ISSN: 2835-3196

Website: econferenceseries.com

3. Mamutova, A., & Ibragimov, A. (2023). IMPROVING THE ANALYSIS OF FINANCIAL RESULTS IN BANKING INSTITUTIONS. Modern Science and Research, 2(10), 561–567. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24510>
4. <https://president.uz/oz/lists/view/4057>
5. <https://regulation.gov.uz/uz/document/7865>
6. <https://www.qrstat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

